



O'ZBEKISTON BOZOR IQTISODIYOTIGA BOSQICHMA BOSQICH O'TISH TARIXI

Umarov Akbar Ali Quyoshbek o'g'li

Andijon davlat universiteti

"Tarix" fakulteti 303-guruh talabasi

Abstrak: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, sotsialistik tuzumdan mustaqil bozor munosabatlariga asoslangan kapitalistik tuzumga o'tishga harakat qildi. Bu tizimning qator afzalliklari bo'lishiga qaramasdan, sotsial tizimdan birdaniga bozor munosabatlariga o'tish bir qator muommolarga sabab bo'lishi mumkin edi va bundan tashqari aholi orasida boylar va kambag'allar orasidagi farqning tez o'sishiga sabab bo'lishi ham mumkin edi, shu sababli ham O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning bosqichma-bosqich o'tish usuli tanlandi. Ushbu maqolada esa ayni ushbu jarayon tarixiy asosga tayangan holda yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bozor munosabatlari, ishlab chiqarish, kapital, bank, xususiy mulkchilik.

Аннотация: После обретения независимости Республика Узбекистан попыталась перейти от социалистической системы к капиталистической системе, основанной на независимых рыночных отношениях. Несмотря на многочисленные преимущества этой системы, внезапный переход от социального строя к рыночным отношениям мог вызвать ряд проблем, а кроме того, мог вызвать быстрое увеличение разрыва между богатыми и бедными среди населения. По этой причине в Узбекистане был выбран поэтапный метод перехода к рыночным отношениям. В данной статье этот процесс рассматривается на исторической основе.

Ключевые слова: Рыночные отношения, производство, капитал, банковское дело, частная собственность.

Abstract: After gaining independence, the Republic of Uzbekistan tried to transition from a socialist system to a capitalist system based on independent market relations. Despite the many advantages of this system, the sudden transition from a social system to a market relationship could cause a number of problems, and in addition, it could cause a rapid increase in the gap between the rich and the poor among the population. for this reason, a step-by-step method of transition to market



relations was chosen in Uzbekistan. In this article, this process is covered based on the historical basis.

Key words: Market relations, production, capital, banking, private ownership.

Kirish

1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini e’lon qildi, shu bilan O‘zbekiston tarixida yangi sahifalar ochildi, jumladan endilikdan sotsialistik tuzum hamda uning qoldiqlarini bartaraf etish, hamda uning asoratlariga qarshi kurashishday muhim vazifa turar edi. Ushbu vazifa ayrim davlatlarida shokterapiyasi orqali yani birdaniga amalga oshirildi bu esa bir qator salbiy oqibatlarga olib keldi, biroq O‘zbekiston ushbu yo‘ldan emas o‘z yo‘lidan borib bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tdi.

Natijalar

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning O‘zbekistonga xos yo‘li. Istiqlol yillarda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida tub islohotlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar iqtisodiy hayotimizni ham qamrab oldi. Respublikaning boy imkoniyatlari, geosiyosiy sharoitidan kelib chiqib, O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalaridan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish masalasi dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi sifatida belgilandi. O‘tish davrida bozor iqtisodiyoti tushunchasi, unga o‘tish zarurati, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning «O‘zbekiston yo‘li» kabi masalalarning tub mohiyatini anglash eng dolzarb vazifalardan biri edi. Ma’lumki, hozirda rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Yaponiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Rossiyajning deyarli barchasi bozor iqtisodiyoti yo‘lini tanlagan bo‘lib, shu asosda iqtisodiy taraqqiyotini belgilab kelmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish XX asrga xos bo‘lgan umumjahon voqelikdir. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish kishilarining xohish - irodasi emas, balki obyektiv zaruratdir. Bozor iqtisodiyoti deganda, tovar - pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar, ya’ni bozor munosabatlari tamoyillari asosida boshqariladigan iqtisod tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti azaldan mayjud. U bir necha ming yillardan beri rivojlanib, turli iqtisodiyijtimoiy tizimlar doirasida saqlanib kelgan. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish - bu shunchaki maqsad emas, balki iqtisodda bozor munosabatlarini shakllantirish, jamiyatni yangilash yo‘lidir, ya’ni iqtisodiy faoliyat erkinligiga, mulkchilikning xilma-xilligiga, narx erkinligiga, raqobat kurashiga, shaxsiy huquq va erkinliklarning qaror topishiga, daromadning cheklanmaganligiga erishish demakdir. Faqat bozor munosabatlari zaminidagina ishlab chiqarishni barqaror rivojlanirish, ko‘plab sifatli



mahsulotlar yaratish, ularga bo‘lgan talabni qondirish, tejamli xo‘jalik yuritish, to‘kinchilik yaratib, xalqning farovon turmushini ta’minlash, halol va samarali mehnatni qadrlash,adolat o‘rnatish mumkin. Bozor iqtisodiyoti - jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmuidir. Tarixan bozor iqtisodiyotiga eng so‘nggi navbatda «sotsialistik» mamlakatlar o‘tmoqda. Xalqaro tajribada bozor iqisodiyotiga o‘tishning bir qancha modellari mavjud bo‘lib, ularni umumlashtirib, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning uch turga yoki modelga bo‘lishimiz mumkin: 1. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlar yo‘li. 2. Mustamlakachilikdan ozod bo‘lib, mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirib rivojlanayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarining yo‘li. 3. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari, boshqacha aytganda, «sotsialistik» rivojlanish yo‘lidan borgan va hozirda bozor iqtisodiyoti yo‘lini tanlagan mamlakatlar yo‘li. Sobiq sotsialistik mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda davlatlashtirilgan, o‘ta markazlashtirilgan va yagona bir markazdan boshqariluvchi iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish zarurligi quyidagi bosqichlarni amalga oshirishni taqozo etdi: 1. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning huquqiy asoslarini yaratish, ya’ni uni ta’minlovchi yuridik qonunlar tizimini yaratish. 2. Bozor infrastrukturasini shakllantirish. Bunda bozor iqtisodiyotiga xos aloqalarni o‘rnatishga ko‘mak beruvchi, ya’ni bozorga xizmat ko‘rsatuvchi sohalarni, tashkilot, korxona va muassasalarni yaratish. 3. Mulkchilikva xo‘jalik yuritish usullarini xususiylashtirish. 4. Marx-navoni liberallashtirish, narxlarni erkin qo‘yib yuborish, narx ustidan davlat nazoratini minimal darajaga keltirish. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning umumiyligi, masalan, xususiy mulkchilik, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va takomillashtirishda talab, taklif qoidalarining bir xilligi bo‘lishi bilan bir qatorda har bir mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi yo‘li mavjuddir. Bunda uning xo‘jalik tuzilishi va shart-sharoitlari, joylashgan yeri, tabiatи va iqlimi, milliy kelib chiqishi, rasm-rusumlari, an’ana va milliy xarakteri va boshqa omillar sabab bo‘ladi [1].

Bundan tashqari bozor iqtisodiyoti hamda mamlakatda aholisiningadolatli turmush tarzini ta’minlashga hizmat qiluzvchi odil sud tizimi ham isloh qilib borildi. Sudlar faoliyatining isloh qilinishidan asosiy ko‘zlangan maqsad shunda ediki qonun ustuvor bo‘lgan mamlakatdagina mamlakat iqtisodiyoti barqaror hamda davomli rivojlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak mamlakatimiz tarixida amalga oshirilgan muhim islohotlardan biri bu bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘ldi hamda



ushbu jarayon davomida fuqarolarimiz uchun juda keng imkoniyatlar bilan birga ularni qo'llab quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar ham yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston Tarixi. – T.: Akademnashr 2019. – B 486.
2. Omadjon Tavakkaljon ugli Kodirjonov, & Khusanboy Madaminjonovich Muminov. (2024). COURT LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(3), 517–520. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/6493>
3. Lex Uz